KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH	822
<i>Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich</i>	
AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	829
<i>Boltayev Nurali Shiramatovich</i>	
MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASI XIZMATLAR SIFATI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	838
<i>Suyunov R. G'.</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	844
<i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i>	
BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI	849
<i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	853
<i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
MEHNAT BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	906
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	911
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ	915
Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилевна	
SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI	921
O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	926
Sherov Sanjar Radjabovich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	932
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	936
Raxmonov Abduxalil Rasulovich	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI.....	940
Maxkamova Kamola	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA).....	944
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	950
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	956
Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li	
O'ZBEKISTONDA 2026-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	963
Ismailov Timur Atabayevich	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI	969
Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li	
MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH.....	977
Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR.....	982
Ergashev Muhibbek Aslamovich	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	988
Rajabova Umida Umurzoqovna	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)	995
Отамуродова Дилдора Абдуқримовна	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT	1001
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
Erkayeva Barno Abduraximovna	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN.....	1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI.....	1035
Butanova Dilnoza Rustamovna	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
Rahimova Gulnoza	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
Akbarova Maloxat Atabekovna	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li	
AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1075
Nazarova Rushana Ravshan qizi	
MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIVAVIY ASOSLARI.....	1080
Qodirov Hasan Do'stqobilovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1084
Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI.....	1089
Pirnafasov Sarvar Bardibayevich	
HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI.....	1093
Q.A. Musaxanov	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1098
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1103
Ulashev Xubbim	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	1107
Hayitov Jamshid Xolvoyevich, Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	1112
Abdurasulov Sardor To'lqin o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILYATI HOLATI TAHLILI	1119
Adilova Zohida Ikromjonovna	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL OMILLARI VA SAMARADORLIGI	1124
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li, Sadibekova Bibisara Djapparovna	
SANOAT TARMOQLARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI	1130
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH.....	1136
Abdullayeva Shaxnoza Esonovna	
EKOTURIZMNING O'ZBEKISTON TURIZM BOZORIDAGI RIVOJLANISH SALOHİYATI.....	1141
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
ISHSIZ VA BAND BO'LMAGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH VA MEXANIZMLARI	1145
Olimov Bekzod Nariman o'g'li	



ISHSIZ VA BAND BO'LMAGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH VA MEXANIZMLARI

Olimov Bekzod Nariman o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi

Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishsiz va band bo'lmagan fuqarolarni ish bilan ta'minlashning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, bandlikni oshirishda inson omilisiz imkoniyatlar yaratish, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu mexanizmlarning aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: ishsizlik, bandlikni ta'minlash, aholi bandligi, kambag'allik, xizmat ko'rsatish.

Abstract. In the context of modern economic development, ensuring employment and reducing unemployment are among the key priorities. This article examines effective mechanisms for ensuring employment of unemployed and economically inactive citizens in the context of a modern economy. Particular attention is paid to the role of creating opportunities without direct human involvement, as well as the use of digital technologies and innovative approaches in increasing employment. The study also highlights the importance of these mechanisms in raising incomes and reducing poverty.

Key words: unemployment, employment provision, population employment, poverty, services.

Аннотация. В условиях современного экономического развития обеспечение занятости населения и снижение уровня безработицы являются одними из приоритетных направлений. В данной научной статье рассматриваются эффективные механизмы обеспечения занятости безработных и экономически неактивных граждан. Особое внимание уделено созданию возможностей без участия человеческого фактора, а также роли цифровых технологий и инновационных подходов в повышении занятости. Также обосновано значение данных механизмов в увеличении доходов населения и сокращении бедности.

Ключевые слова: безработица, обеспечение занятости, занятость населения, бедность, услуги.

KIRISH

Globalashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida aholi bandligini ta'minlash, daromadlar darajasini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun barqaror ish o'rinlarini yaratish, aholining turli qatlamlarini iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish va ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy sharoitda mehnat bozorini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda inson kapitalini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahallalarni ixtisoslashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, loyihaviy yondashuv asosida aholini daromadli mehnatga jalb qilish, norasmiy bandlikni qisqartirish va uni legallashtirish hamda innovatsion texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt asosidagi platformalarni joriy etish orqali bandlik tizimini takomillashtirish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda.

Mazkur maqolada mamlakatimizda aholi bandligini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, amalga oshirilayotgan chora-



tadbirlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonlarning iqtisodiy samaradorligi hamda aholi turmush darajasini oshirishdagi o'zni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlik masalasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlaridan biri sifatida ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, John Maynard Keynes ishsizlik muammosini samarali talab yetishmovchiligi bilan izohlab, davlatning faol fiskal siyosati orqali bandlikni oshirish mumkinligini asoslab bergan. Uning fikricha, iqtisodiy inqiroz davrida davlat xarajatlarini oshirish orqali ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milton Friedman esa mehnat bozorida "tabiiy ishsizlik darajasi" konsepsiyasini ilgari surib, uzoq muddatda bandlikni sun'iy rag'batlantirish inflyatsiyaga olib kelishini ta'kidlagan. U ishsizlikni kamaytirishda bozordagi muvozanat mexanizmlariga ustuvor ahamiyat beradi. Gary Becker tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasida esa bandlik darajasi bevosita ta'lim, malaka va sog'liq kabi omillar bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan, bu esa ishsizlarni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish dasturlarining ahamiyatini oshiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda bandlikni ta'minlash mexanizmlari institutsional va tarkibiy yondashuvlar asosida tahlil qilinmoqda. Olivier Blanchard mehnat bozorida rigidliklar, ish haqi moslashuvchanligi va ijtimoiy himoya tizimlarining bandlikka ta'sirini o'rganib, samarali bandlik siyosati uchun muvozanatli yondashuv zarurligini asoslaydi. Richard Layard esa ishsizlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik oqibatlariga e'tibor qaratib, faol mehnat bozori siyosatlarini, xususan, qayta tayyorlash va ishga joylashtirish xizmatlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, International Labour Organization tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bandlikni ta'minlashda faol va passiv siyosat choralariining uyg'unligi muhimligi qayd etilgan. Tashkilot hisobotlarida davlat tomonidan subsidiyalari, jamoat ishlari dasturlari, kasb-hunar o'qitish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, Dani Rodrik globalizatsiya sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va uning bandlikka ta'sirini tahlil qilib, milliy iqtisodiyotlarda inkluziv o'sishni ta'minlash uchun moslashuvchan siyosat choralariini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Joseph Stiglitz esa iqtisodiy tengsizlik va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berib, bandlik siyosati ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerakligini asoslaydi.

Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda ham bandlikni ta'minlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, hududiy bandlik dasturlarini kengaytirish, raqamli platformalar orqali ish o'rinlarini yaratish kabi yo'nalishlar ustuvor deb baholanmoqda. Bu borada zamonaviy yondashuvlar mehnat bozorini raqamlashtirish, masofaviy ish shakllarini kengaytirish hamda yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishsiz va band bo'lmagan fuqarolar bandligini ta'minlash ko'p omilli jarayon bo'lib, unda makroiqtisodiy siyosat, institutsional muhit, inson kapitali rivoji hamda innovatsion yondashuvlar o'zaro uyg'un holda amal qilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik manbalari, davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlaridan yig'ildi. Ularni tahlil qilishda taqqoslama va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi, shuningdek, bandlik va daromad ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Natijalarni umumlashtirishda iqtisodiy-statistik va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda barqaror va yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, loyihaviy yondashuv asosida mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va hududlarning solishtirma ustunliklarini aniqlagan holda tadbirkorlik hamda biznesga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, rasmiy bandlikni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy qilish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga chiqmoqda.

Yurtimizda mustaqillik yillarida band bo'lmagan, ishsiz aholini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilishning samarali mexanizmlaridan biri loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirish va shu orqali oila budjeti daromadlarini yaxshilash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmogda.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining ko'plab qarorlari qabul qilingan.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-49-son¹ qarori qabul qilingan bo'lib, 2026-yilda aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlab berilgan.

Xususan, 2026-yilda aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib:

- kambag'allik darajasini 2,8 foizgacha va ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha pasaytirish;
- 1 mln aholini doimiy ish o'rinlariga joylashtirish hamda 4 mln aholi daromadini oshirish;
- 263 mingta kambag'al oilalarni (1,1 mln aholini) ularning daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish;
- kambag'allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish;
- 1 mln norasmiy ish o'rinlarini legallashtirish;
- 120 ming nafar mutaxassisni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish;
- 37 ta og'ir toifadagi tumanlarda kambag'allik darajasini kamida 2 baravarga qisqartirish va Yangi O'zbekiston qiyofasidagi 33 ta tuman va shaharni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish belgilab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son² qaroriga asosan, 2025-yilda Toshkent shahrida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi belgilab berilgan.

Ta'kidlash joizki, birgina Toshkent shahrining o'zida 2025-yilda aholini daromadli ish bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator samarali ishlar olib borildi.

Xususan, Toshkent shahrida 902 671 nafar aholi bandligini ta'minlash belgilangan bo'lib, investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 18 202 nafar, tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 873 400 nafar (aholini doimiy ishga joylashtirish 394 558 nafar, aholini tadbirkorlikka jalb qilish 478 842 nafar), qishloq xo'jaligi sohasida 1 553 nafar, qurilish sohasida 9 516 nafarni tashkil etadi.

Qaror ijrosi bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 902 671 nafar aholi bandligini ta'minlash belgilangan bo'lib, amalda 938 356 nafar (rejaga nisbatan 104 %) aholi daromadli mehnat bilan bandligi ta'minlandi.

Xususan, investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 18 592 nafar, tijorat banklari tomonidan 908 392 nafar (shundan: aholini doimiy ishga joylashtirish 403 160 nafar, aholini tadbirkorlikka jalb qilish 505 232 nafar), qishloq xo'jaligi yo'nalishida 1 671 nafar, qurilish sohasida 9 701 nafarni tashkil etadi.

Shuningdek, mazkur qaror bilan Toshkent shahrida kambag'al oilalarga 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 15 136 ta oilani yoki 69 352 nafar aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish belgilangan.

2025-yil yakunlariga ko'ra 18 350 ta oilaga yoki 73 768 nafar aholiga kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatilib, belgilangan reja 121,2 foizga bajarilgan.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ijrosi bo'yicha 01.01.2026-yil holatiga ko'ra jami "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan kambag'al oilalar soni 25 819 ta, shundan kambag'allikdan chiqqan oilalar soni jami 15 475 tani tashkil etadi. Shundan 12 100 tasi (aholi jon boshiga daromadi 1,1 mln so'mdan yuqori bo'lgan) kambag'al oilaning barqaror daromadi oshganligi sababli "Kambag'al oilalar reestri"dan chiqarilgan, 3 375 tasi esa oilaning daromadi 1,0 mln so'mgacha oshganligi (aholi jon boshiga daromadi 669,0 mingdan 1,0 mln so'mgacha) natijasida yashil toifaga o'tkazilgan.

"Bandlik organlari — ish beruvchi hamkori" dasturini takomillashtirish hamda ish beruvchilar va ish izlovchilar o'rtasida hamkorlikni o'rnatish maqsadida bandlik organlari tomonidan korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar va ish qidiruvchilarning rezyumelari "osonish.uz" elektron platformasiga joylashtirilishiga ko'maklashish hamda ish beruvchilarga sun'iy intellekt yordamida nomzodlarni aniqlash va tavsiya etish mexanizmi joriy etildi.

Ushbu maqsadlar orqali bugungi kunda mehnat bozorida real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish, ish o'rinlari va qaysi kasblarga talab yuqoriligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida mehnat bozorini muvozanatda ushlab turish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida fuqarolarning qobiliyati va ularning salohiyatini aniqlab beradigan kasbiy diagnostika testlarini joriy etish belgilandi.

Platforma orqali fuqarolarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash hamda test natijalaridan kelib chiqqan holda ularga ish taklif etish yoki kasbga yo'naltirish tizimini yaratish kabi masalalarning yechimi aholini innovatsion ish bilan band qilishga ko'maklashish mexanizmini takomillashtirishga olib keladi.

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-8038302>

2 <https://lex.uz/docs/-7327821>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish va kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimli va izchil xarakterga ega bo'lib, ularning samaradorligi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Xususan, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu bilan birga, mehnat bozorini muvozanatlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan yondashuvlar aholi daromadlarini barqaror oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan siyosatning muhim jihati shundaki, u nafaqat qisqa muddatli natijalarga, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga ham qaratilgan.

Kelgusida ushbu yo'nalishda erishilgan natijalarni mustahkamlash uchun hududlararo rivojlanish tafovutlarini kamaytirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalar asosida bandlik xizmatlarini rivojlantirish hamda aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar orqali iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi ta'minlanadi va aholining turmush darajasi yanada yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 20.10.2020-yildagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5055690>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-49-son qarori // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8038302>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7327821>
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
5. Friedman M. The Role of Monetary Policy. – American Economic Review, 1968.
6. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.
7. Blanchard O. Macroeconomics. – Boston: Pearson, 2017.
8. Layard R., Nickell S., Jackman R. Unemployment: Macroeconomic Performance and the Labour Market. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
9. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook. – Geneva, 2023.
10. Rodrik D. The Globalization Paradox. – New York: W.W. Norton, 2011.
11. Stiglitz J.E. The Price of Inequality. – New York: W.W. Norton, 2012.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>